



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



**VOL.3 № 2**

**2026**

## **ME'YOR VA SUBME'YOR: LISONIY, ADABIY VA NUTQIY ME'YORLARNING O'ZARO KESISHUV MUNOSABATLARI**

**Satimova Dilafruz Numonjonovna**

Andijon davlat chet tillari instituti, dotsent (DSc)

### **Annotatsiya**

Maqolaning asosiy maqsadi me'yor va subme'yor tushunchalarining lisoniy, adabiy va nutqiy darajalardagi o'zaro kesishuv munosabatlarini yoritish, ularning nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda me'yorning til tizimi, struktura va uzus bilan bog'liqligi Yevropa va o'zbek tilshunosligi doirasida qiyosiy asosda ko'rib chiqilgan. Subme'yor fenomenining mazmun-mohiyati, tarkibiy qismlari hamda og'zaki nutqda namoyon bo'lish shakllari misollar orqali tahlil qilindi. Ishda tavsifiy, komponent tahlil, qiyosiy-tipologik va funksional yondashuv metodlaridan foydalanildi. Xulosa qismida, me'yor va subme'yor o'zaro qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi va tarixiy-ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanib boruvchi murakkab hodisa ekanligi asoslandi.

**Kalit so'zlar:** me'yor, subme'yor, lisoniy me'yor, adabiy me'yor, nutqiy me'yor, uzus, standart, substandart, nutq madaniyati

## **НОРМА И СУБНОРМА: ПЕРЕСЕКАЮЩИЕСЯ ОТНОШЕНИЯ ЯЗЫКОВОЙ, ЛИТЕРАТУРНОЙ И РЕЧЕВОЙ НОРМ**

**Сатимова Дилафруз Нумонжоновна**

Андижанский государственный институт иностранных языков, доцент (DSc)

### **Аннотация**

Основная цель статьи заключается в раскрытии взаимопересекающихся отношений между понятиями норма и субнорма на языковом, литературном и речевом уровнях, а также в анализе их теоретических и практических аспектов. В исследовании в сравнительном ключе рассматривается связь нормы с языковой системой, структурой и узусом в рамках европейской и узбекской лингвистической традиции. Семантическое содержание феномена субнормы, его структурные компоненты и формы проявления в устной речи анализируются на основе иллюстративных примеров. В работе применяются описательный метод, компонентный анализ, сравнительно-типологический метод и функциональный подход. Полученные результаты позволяют сделать вывод о том, что норма и субнорма не являются взаимоисключающими категориями; напротив, они представляют собой взаимодополняющие и взаимозависимые явления, динамически развивающиеся под воздействием историко-социальных факторов.

**Ключевые слова:** норма, субнорма, языковая норма, литературная норма, речевая норма, узус, стандарт, субстандарт, культура речи.

## **NORM AND SUBNORM: INTERSECTING RELATIONS OF LINGUISTIC, LITERARY, AND SPEECH NORMS**

**Satimova Dilafruz Numonjonovna**

Andijan State Institute of Foreign Languages, Associate Professor (DSc)

### Abstract

The primary aim of this article is to elucidate the interrelated and intersecting relationships between the concepts of norm and subnorm across linguistic, literary, and speech levels, and to analyze their theoretical as well as practical dimensions. The study examines the correlation of norm with the language system, structure, and usage (*usus*) within the frameworks of European and Uzbek linguistics through a comparative perspective. The semantic scope of the subnorm phenomenon, its constituent components, and its manifestations in spoken discourse are analyzed with illustrative examples. The research employs descriptive analysis, componential analysis, a comparative-typological method, and a functional approach. The findings demonstrate that norm and subnorm should not be regarded as mutually antagonistic categories; rather, they constitute complementary and interdependent phenomena that evolve dynamically under the influence of historical and socio-cultural factors.

**Keywords:** norm, subnorm, linguistic norm, literary norm, speech norm, *usus*, standard, substandard, speech culture.

Til me'yori masalasi tilshunoslikning markaziy kategoriyalaridan biri bo'lib, u til tizimi, jamiyat va nutq faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Zamonaviy tilshunoslikda me'yor tushunchasi statik emas, balki dinamik va ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida talqin etiladi. Subme'yor esa standart me'yordan chetga chiqish holati sifatida emas, balki tilning funksional qatlamlaridan biri sifatida qaralmoqda. Yevropa tilshunosligida "*standard*" va "*substandard*" terminlarining paydo bo'lishi tilning ijtimoiy qatlamlanishini ilmiy asosda o'rganishga turtki berdi. Xususan, L. Blumfeld tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan "substandard" atamasi keyinchalik ingliz, nemis va boshqa tillar tizimida keng qo'llanila boshladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – me'yor va subme'yorning lisoniy, adabiy va nutqiy darajalardagi o'zaro kesishuv munosabatlarini aniqlash hamda ularning kommunikativ jarayondagi funksional ahamiyatini ochib berishdir.

**Metodologiya (Methods).** Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslanadi:

- tavsifiy (deskriptiv) tahlil;
- komponent tahlil;
- qiyosiy-tipologik metod;
- funksional-semantik yondashuv;
- sotsiolingvistik kuzatuv.

Nazariy asos sifatida E. Koseriu, V.A. Itskovich, B. Gavranek, S.I. Ojegov, L.S. Petrova, A. Mamatov, E. Begmatov, Sh. Safarov va boshqa olimlarning me'yor va uzus haqidagi qarashlari o'rganildi.

**Asosiy qism (Main part).** An'anaga ko'ra, tilning tarqalish hududi chegaralanmagan yoki insonlarning faoliyat turi bilan cheklanmagan so'zlarga iqtisodiy, madaniy va kundalik hayotdagi tushuncha va hodisalarning nomlari kiradi. "Bu so'zlar har bir ona tilida so'zlashuvchilar uchun tushunarli bo'lib, milliy lug'atdagi so'zlarning turli tematik guruhlarini ajratish imkonini beradi" [5, 152]. Ikkinchi guruh esa ma'lum doirada chegaralangan va faqat shu guruh a'zolariga tushunarli bo'lgan leksikadir. Holbuki, ikkinchi darajali substandart ingliz tili (Substandard English) bir tomondan adabiy bo'lmagan, mahalliy, qo'pol, umumiy sleng lug'atini o'z ichiga oladi, boshqa tomondan esa, kentizm-argotizmlar (rhyming, back, centre/medial slang), ijtimoiy, guruh lahjasi, adabiy dialektlar, hududiy va etnik lahjalar, idiolektlarni, ya'ni alohida individga xos bo'lgan til variantlarini qamrab oladi. Shu bilan birga, substandart leksika, jargonlarga xos so'zlarning differensial variantlarini ham o'z ichiga oladi. Shu jihatdan kelib chiqib, "*Standard*" terminidan keyin uning aksi bo'lgan "*Substandard*" atamasi Yevropa tilshunosligida qo'llanila boshladi. Bu atama ilmiy qo'llanishga 1930-yillarda

L.Blumfild tomonidan kiritilgan va shu vaqtdan boshlab ingliz, nemis va boshqa tillar terminologik tizimlarida keng tarqalishni boshlagan [1, 45]. 1986-yilning boshlarida esa “Sprachlicher Substandard” to‘plamining nashr etilishi bilan Germaniyada romanistlar orasida *standart*, *substandart* va *nonstandart* tilga oid keng ko‘lamli munozaralar boshlandi. Bu atama va tushunchalar atrofidagi bahs Yevropa tilshunosligi uchun ham ahamiyatli bo‘lib, sotsiolekt doirasidagi sohalarini tadqiq qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Darhaqiqat, A.Sodiqov va A.Abdurazizovlar ham me‘yorga quyidagicha munosabat bildiradilar: “Norma (me‘yor) – til birliklarini nutqning u yoki bu ko‘rinishida ishlatish qonuniyatlari va imkoniyatlari bo‘lib, ular jamiyat tomonidan belgilangan va aniqlangandir” [16, 22]. Bu ta‘rif til me‘yorlarini ijtimoiy kelishuv natijasi sifatida ko‘rsatadi. Shuningdek, bu yondashuv me‘yorlarning doimiy rivojlanib, jamiyat ehtiyojlari va til dinamikasiga mos ravishda o‘zgarib borishini ta‘kidlaydi. Shu bois, til me‘yorlari faqat grammatik qoidalar yig‘indisi bo‘lib qolmay, balki nutq madaniyatini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

J.Tachmurodovning tasnifiga ko‘ra “me‘yor” uch darajaga bo‘linadi:

1. *Lisoniy me‘yor* – bu lingvistik kategoriya bo‘lib, til tizimining mavjudligini ta‘minlovchi qonuniyatlari sifatida uning barcha darajalarida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, adabiy tilda bu kuchayadi va individual nutq tizimlarida ifodalanadi, bu esa bevosita til tizimining ta‘siri ostida paydo bo‘ladi.

2. *Adabiy me‘yor* bu til me‘yorining alohida, maxsus qismi bo‘lib, ma‘lum bir bosqichdagi tilning yashash qonuniyatidir. U yozuvda mustahkamlangan bo‘lib, barcha uchun umumiy namunadir. Adabiy me‘yor barqaror, shu bilan birga rivojlanib boruvchi va muntazam ravishda funksional cheklangan bo‘ladi. Adabiy me‘yorning chegaralanishi uning aslida haqiqiy me‘yor ekanligidan kelib chiqadi.

3. *Nutqiy me‘yor* – lisoniy me‘yorga tayanadi, ma‘lum tilning konkret (nutqqa ko‘chishi), ya‘ni tilni so‘zlovchi shaxsning lisoniy me‘yori va adabiy me‘yordan kelib chiqqan uzusi hisoblanadi [17, 75].

Bu uch darajadagi meyorlar tilning qanchalik murakkab va ko‘p qatlamli ekanligini ko‘rsatadi. Lisoniy me‘yor umumiy qoidalarni ifodalasa, adabiy me‘yor rasmiy va yozma shaklda barqarorlikni ta‘minlaydi. Nutqiy me‘yor esa tilni amalda qo‘llashda muhim bo‘lib, tilning jonli va tabiiy ko‘rinishlarini aks ettiradi.

Biroq, E. Koseriu va V.A. Itskovichlar ushbu tasnifning uchinchi darajasiga boshqacha yondashadi: “Uzus (nutq) – iste‘mol tushunchasi yanada kengroq ma‘noga ega bo‘lib, u og‘zaki va yozma shakllardagi turli xil ko‘rinishlardan iborat nutqdur. Til hodisalari aynan shu doirada yuzaga keladi. Iste‘mol til tizimiga tayanadi, ammo uni buzadi va bu jarayon davomida me‘yor hosil bo‘ladi. Bu me‘yorning tizim va lingvistik doiralarga kirib borishini ta‘minlaydi” [8, 31]. E.Begmatov va A.Mamatovlar ham bu tushunchani yanada aniqlashtirib, shunday deydi: “Uzus (nutq) – iste‘mol bu tilning umumjamoasi tomonidan qabul qilingan turli xil til birliklarining odatdagi qo‘llanishidir” [2, 24]. Demak, uzus – iste‘mol tilning kundalik hayotda qo‘llanilishi bilan bog‘liq bo‘lib, til birliklarining me‘yor va me‘yorsiz holatlarini o‘z ichiga oladi.

Me‘yor tushunchasi tilshunoslikda “til tizimi” va “til strukturasi” bog‘liqdir. Bu bog‘liqlik E. Koseriusning “sistema – me‘yor – nutq (uzus)” va V.A. Itskovichning “sistema – struktura – qo‘llanish” sxemalarida ko‘rsatilgan [8, 33].

Lisoniy me‘yor nutq madaniyatining markaziy tushunchasidir. Nutq madaniyati, avvalo, adabiy til me‘yorlariga qat‘iy rioya qilishni talab etadi. Adabiy me‘yorlarga to‘la rioya qilingan ko‘plab matnlar ham mavjud bo‘lib, ular maqsadga muvofiq bo‘lmagan mazmunda bo‘lishi mumkin. Lisoniy me‘yor, o‘z navbatida, nutqning sof struktural, ramziy va lingvistik

tomonini tartibga soladi va bu orqali uning jamiyat, ong va insonlarning harakatlariga ta'sir qilmasligini ta'minlaydi. Nutq madaniyatining ikkinchi muhim sifati bu kommunikativ maqsadga muvofiqlikdir. Kommunikativ maqsadga muvofiqlik, har bir nutq holatida o'ziga xos mazmunni ifodalash uchun til tizimida mos keluvchi lisoniy shaklni topish qobiliyatini anglatadi. Ya'ni, belgilangan maqsad va vaziyat uchun kerakli til vositalarini tanlash, nutq kommunikativ tomonining asosini tashkil etadi. Bu nuqtayi nazardan, nutq madaniyati, nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri, balki maqsadga muvofiq va effektiv bo'lishini talab qiladi. Har bir nutq holati uchun eng to'g'ri va mos keluvchi til shaklini tanlash, til me'yorlariga rioya qilish bilan birga, mazmunning aniq va tushunarli bo'lishini ham ta'minlaydi.

Ma'lumki, aholi soni yildan yilga oshib borar ekan, jamiyat taraqqiyoti va axborot almashishga bo'lgan ehtiyoj ham ortib boradi. Til va nutq me'yorlari bir-biri uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda tilshunoslar asosan lisoniy me'yorlarni kuzatish bilan cheklanib qolmoqdalar. O'zbek adabiy tili me'yorlarini aniqlash jarayoni bir necha asrlar avval boshlangan bo'lib, o'zbek nutqi madaniyati va me'yorlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotchi va nazariyotchi olim E.Begmatovning qayd etishicha, XX asr boshlarida o'zbek adabiy tilining yangi taraqqiyot bosqichida dialektal negizni belgilash, yozuv va alifbo masalalarini hal qilish, imlo qoidalarini ishlab chiqish, imlodagi kamchiliklarni tuzatish, til birliklarining qo'llanilishidagi ikki tomonlama yondashuv va beqarorlikni bartaraf etish, atamalarni takomillashtirish, grammatikalar yaratish va ta'lim tizimini yo'lga qo'yish kabi masalalar nutq madaniyati muammolarini hal qilishning muhim tarkibiy qismi edi [3, 167].

Adabiy til me'yorlari – bu ko'pchilik til tashuvchilari tomonidan til vositalaridan bir xil foydalanish maqsadida qabul qilingan qonun va qoidalar [9, 8]. Bu me'yorlar, asosan, tilning rasmiy va adabiy shakllarini tartibga soladi hamda tilning aniq, ravon va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Adabiy til me'yorlari, shu bilan birga, tilning adabiy, ilmiy, huquqiy va boshqa rasmiy sohalarida qo'llanilishiga asos bo'ladi. Adabiy til me'yorlari, shuningdek, nutq madaniyatini ham belgilaydi. Nutq madaniyati esa, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda, chiroyli va mazmunli so'zlash, til vositalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikma va vazifalarini o'z ichiga oladi.

Adabiy tilning belgilangan me'yorlari mavjud bo'lib, u tilning har bir darajasida o'z ifodasini topadi:

- Tovush birikmalarining to'g'ri talaffuzi (orfoepik me'yor)
- Leksik-semantik me'yor
- Fonetik me'yor
- Morfologik me'yor
- Sintaktik me'yor
- Stilistik me'yor
- Punktatsion (tinish belgilari) me'yor
- Intonatsion me'yor [9, 8].

Rus tilshunos va leksikografi S.I.Ojegov me'yorning tarixiy va ijtimoiy shartlarini birlashtirishga uringan: “Til me'yori – bu statistik hodisa emas, chunki tilda keng tarqalgan va tez-tez takrorlanadigan xatolar ham ma'lum. Til me'yori, avvalo, tipik hodisa bo'lib, ya'ni ushbu ijtimoiy-tarixiy hodisaning mohiyatiga mos keluvchi, shunchaki eng keng tarqalgan, tez-tez takrorlanadigan yoki oddiy narsa emas. Aynan shuning uchun lisoniy me'yorni statistik hodisa sifatida ko'rib bo'lmaydi” [12, 260]. Aytilganlardan kelib chiqadiki, lisoniy me'yor doimiy, o'zgarmas, qat'iy kategoriya emas. Lisoniy me'yor tarixiy jihatdan shakllangan fakt bo'lib, tilning rivojlanishidagi tarixiy qonuniyatlar va har bir davrga xos bo'lgan rivojlanish tendensiyalarining namoyon bo'lishi, jamiyat tomonidan uning til amaliyotida qo'llab-quvvatlanishi va ma'qullanishidir. Shundan kelib chiqadiki, me'yor – bu jamiyat ehtiyojlarini



qondirish uchun eng mos (to'g'ri deb bilingan, afzal ko'rilgan) til vositalarining yig'indisi bo'lib, bu til elementlarini tanlash natijasida shakllanadi. Bu elementlar birgalikda mavjud bo'lishi, yangidan shakllanishi yoki o'tgan davrning passiv zaxirasidan olinishi mumkin. Me'yor masalasining turli lisoniy aspektlar – leksika, grammatika, orfoepiya kabilarga nisbatan yanada chuqur o'rganilishi adabiy tilni me'yorlashtirish tamoyillarini ilmiy obyektivlik bilan aniqlashga imkon beradi va nutq madaniyatining umumiy ravnaqiga yordam beradi. Darhaqiqat, lisoniy me'yor haqida aytilgan yuqoridagi fikrlar, xususan, uni statistik hodisa sifatida ko'rmaslik kerakligi va u doimiy emasligi haqidagi mulohazalar juda muhim. Lisoniy me'yor jamiyatda tilning qanday ishlatilishini tartibga soluvchi qonuniyatlarni o'z ichiga oladi, lekin bu qonuniyatlar hamisha o'zgarib turadi. Til me'yori tarixiy va ijtimoiy sharoitlarga bog'liq bo'lib, u vaqt o'tishi bilan rivojlanadi va o'zgaradi. Bu jarayon tilning dinamik xususiyatini, uning ijtimoiy ehtiyojlarga moslashishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham lisoniy me'yor doimiy va o'zgarmas bo'lishi mumkin emas. Til, har bir davrda o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlariga ega va bu davrda shakllangan me'yorni kelajakda ham o'zgarmas deb hisoblash xato bo'ladi.

Tadqiqotchi L.S. Petrova lisoniy me'yorni talqin qilish uchun eng keng tarqalgan uchta asosiy mezonni ko'rsatadi:

1. Lingvistik – til tizimiga eng yuqori darajada majburiy, to'la moslik sifatida qaraladi.
2. Tarixiy – an'anaviy va vaqt sinovidan o'tgan barqarorlikni o'z ichiga oladi.
3. Ijtimoiy – manbaning ishonchlilik darajasiga, foydalanish mezonlariga va ishonchlilik darajasiga bog'liq [13, 113].

XX asrning ikkinchi yarmigacha hukmron bo'lgan me'yoriy yondashuv, asosan, fransuz (Durkgeym) va Jeneva (de Sossyur) maktablariga xos edi. Bu yondashuv statik-konservativ xarakterga ega bo'lib, jamiyat tomonidan bir marta va doimiy tusdagi normativlarga mos keladigan me'yorni to'g'ri deb hisoblaydi [15, 138]. Demak, me'yoriy yondashuvda me'yor qattiq cheklov bo'lib, bunda tarixan an'anaviy grammatikada haqiqiy matnlardan olingan ifodalar muhim ahamiyatga ega edi, ammo foydalanilishi mumkin yoki kerak bo'lmagan misollar umuman ko'rib chiqilmasdi. Bu holat zamonaviy o'quv adabiyotida ham saqlanib qolgan.

Funksional yondashuv va me'yoriylik g'oyasi F. de Sossyur shogirdlari va izdoshlari, xususan, Jeneva maktabi vakillari Sh. Balli va A. Seshe tomonidan qo'yilgan bo'lib, bu yondashuv xorijiy va mahalliy tilshunoslarning bir qator asarlarida rivoj topdi.

Praga lingvistik maktabi vakillari birinchilardan bo'lib me'yorga funksional yondashuvni qo'llaganlar. Aynan ularning asarlarida me'yor va uning kodifikatsiyasi tushunchalari ilk bor ajratilgan. Bu jarayon natijasida, A. Yedlichka quyidagi me'yorlarni belgilab berdi: 1) tizimli – lisoniy vositalar majmuyi va ulardan foydalanish qonuniyatlarini ifodalovchi; 2) situatsion-kommunikativ – muloqot sharoitiga qarab moslashuvchi [7, 551].

Me'yorlarning birinchi turi asosan qulaylik mezon bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi turi yuqorida tavsiflangan samaradorlik va ratsionallik mezonlariga mos keladi. Bu yondashuv Praga lingvistik to'garagi vakillari tomonidan o'rganilgan tilni belgilovchi ijtimoiy-teleologik vektorni namoyon etadi. Ayniqsa, B. Gavranek til me'yorini ikki jihatdan qisqa va lo'nda ta'riflaydi:


1. Ijtimoiy jihat – bu til jamoasi tomonidan qabul qilingan barcha narsalar.
2. Funksional jihat – bu lisoniy me'yorning lingvistik komponentini to'ldiruvchi ma'nodir [6, 339]. Shuningdek, tadqiqotchi lisoniy me'yorni quyidagicha izohlaydi: “Men lisoniy me'yorni til sohasidagi majburiy tabiati nuqtayi nazaridan – lisoniy faoliyat sohasida rejalashtirilgan natijaga erishish vazifasi bilan bog'liq bo'lgan til tizimi sifatida tushunaman” [6, 340].

Me'yor har bir sohada mavjud bo'lib, insonning hayot tarzi, xulq-atvori, ish jarayoni va nutqida namoyon bo'ladi. Me'yor tushunchasi nazariy va amaliy ahamiyatga ega, chunki har qanday faoliyatning muvaffaqiyati unga bog'liq. Ammo inson nutqi bu me'yorlarga har doim ham rioya qiladimi? Afsuski, odatda kishilar barcha me'yorlarga to'liq amal qilmaydilar. Deylik, o'zbek tilida *Ana uni berib yubor* o'rniga *Anavini bervor*, yoki *mana shularni olib kel* o'rniga *mashularni obkel* (shevalar kesimida turli xil; *mashilarni obke, ola kel, ashini bervor* va h.k.) kabi talaffuz qoidalarining buzilishi ko'zga tashlanadi. Ingliz tilida ham shunga o'xshash holatlar mavjud: *"I am going to swim"* o'rniga *"I gonna swim"*, *"I want to sleep"* o'rniga *"I wanna sleep"* va *"You have to wear a uniform"* o'rniga *"You hafta wear a uniform"* kabi iboralar qo'llaniladi. Bu holatlarning kuchaymasligi uchun majburiy til qoidalari joriy etilgan bo'lsa-da, barcha til subyektlari bu qoidalardan xabardor emaslar. Yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash uchun oilaviy muhit, atrof-muhit va ta'lim-tarbiya nazorati zarur. Biroq, haddan tashqari e'tibor va nazorat bir qator salbiy ta'sirlarni keltirib chiqaradi, ma'lum bir chegarani saqlagan holda erkinlikni ta'minlash, zamonaviylashish, boshqa tillarni o'zlashtira olmaslik kabi holatlardan yiroq bo'lishga olib keladi.

Tilshunos olim Sh.Safarovning uqtirishicha, muloqotning maqsadi faqatgina axborot almashishdan iborat emas, balki axborotni uzatish orqali "suhbatdosh"ga ta'sir o'tkazish, uni biror narsaga ishontrish, bo'ysundirish va harakatga undash maqsadi kutiladi. Bundan tashqari, semiotiklarning o'zlari e'tirof etganlaridek, aloqa vositasi bo'lmish belgilar so'zlovchi tomonidan o'z maylini, birovni yoki biror narsani yoqtirishini, noroziligini, hayratini va boshqa ruhiy tuyg'ularini izhor etish uchun ham qo'llanishini bilamiz. Lingvistik muloqotning aynan shu jihatlarini inobatga olgan holda, semiotik tizimning qismlari o'zaro dinamik va harakatchan munosabatda bo'lishini tasavvur qilish mumkin bo'ladi [14, 49].

Shundan kelib chiqib, og'zaki nutqda subme'yor aralashuvi kuchaygani kuzatiladi. Xo'sh, *subme'yor nima, uning tarkibi qanday* va *u og'zaki nutqda til tashuvchilari uchun keraklimi? Og'zaki nutq me'yorlariga rioya qilish bilan uning me'yorlarini belgilay olamizmi?* Bu kabi savollar cheksizdir. Ammo, fenomenning bir tomoni nutq madaniyati, o'zbek og'zaki nutq madaniyati, ziyolilar, pedagoglar, OAV vakillari nutqi madaniyati xalqning va millatning yuzini ko'rsatuvchi omillardir. Ularni chetlab o'tib, faqatgina tilning adabiy bo'lmagan me'yorlarida nutqni shakllantirish va shu oqimda harakat qilish hech bir millat madaniyatiga mos kelmaydi.

Masalaning boshqa tomoniga e'tibor qaratsak, til me'yorlari haqida chuqur izlanish olib borgan olim A. Mamatovning fikriga ko'ra, "og'zaki va yozma nutqda har xil leksik me'yor buzilishlari va undan chetga chiqishlar sodir bo'lib turadi va ularni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: so'z ma'nolarini tushunmasdan turib, so'zlarni ma'lum matnda noto'g'ri qo'llash, so'z ma'nolarining chegarasini haddan tashqari keng tushunib, so'zni boshqa leksik birliklar bilan noto'g'ri biriktirib ishlatish, so'zlar stilistik distributsiyasining buzilishi, ya'ni bir-biriga mos kelmaydigan stilistik belgilarga ega bo'lgan so'zlarni bir matnda qo'llash, chet tillardan kirib kelgan so'zlarni noo'rin, keraksiz joylarda ishlatish va ularni hadeb takrorlash, muayyan bir tilda paronim so'zlarni aralashtirib ishlatish, kontaminatsiya hodisasi, ya'ni ikki yoki undan ortiq so'zlarniyag qismlarini bir-biri bilan biriktirib ishlatish, keraksiz o'rinlarda dialektizm, okkazionalizm, kakofemizm, kanselyarizm, tautologik so'zlarni ishlatish va shunga o'xshashlar" [11, 67]. Tilshunosning bu fikrlari til me'yorlari va subme'yor bo'lishining faktik hodisa ekanligini anglatadi. Ular bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, quyidagi jihatlar bilan farqlanadi: *ta'rif; chiziq; chegara; yuqori va quyi qismlar; tarkib; punktuatsiya; bilimlar bazasi; millat; kontekst; vaziyat; so'zlovchi; diskurs*



### 1.2-rasm. Me'yor va subme'yorning ajratuvchi mezonlari

Me'yor faqat lingvistik hodisa emas, balki ijtimoiy hodisa deb hisoblanishi til me'yorlarining mohiyatini kengroq tushunishdir. Bu talqinga ko'ra, til me'yori paydo bo'lishi va shakllanishi nafaqat til qoidalari bilan, balki ijtimoiy-tarixiy omillar, til jamoasining turmush tarzi, madaniy-ma'naviy qadriyatlari bilan ham shartlanadi. Shunday qilib, bu nuqtayi nazarga ko'ra, me'yor faqat lingvistik, balki ekstralingvistik hodisa hamdir. Bu esa, lisoniy me'yorlarni ijtimoiy kontekstda ko'rib chiqishni va lisoniy jamoaning ijtimoiy va madaniy hayoti bilan bog'liq holda tahlil qilishni talab etadi.

Kuzatishlarimiz natijasiga ko'ra, **sub** – prefiksi me'yorning aksi sifatida, ya'ni subme'yor bo'lib ishlatilishiga quyidagi izohlarni berish mumkin:

- Subme'yor til birliklarining asosiy (standart) me'yordan chetga chiqadigan, lekin til tizimi ichida mavjud bo'lgan qismi yoki elementi sifatida ko'riladi. Bu tushuncha yordamchi yoki ikkinchi darajali til birliklari sifatida qaraladi, masalan, past standartli (substandart) yoki past me'yorli (subme'yoriy) birliklar.
- Subme'yor asosiy (standart) me'yordan kamroq bo'lgan til birliklarini ifodalaydi. Bunday birliklar odatda noto'g'ri yoki me'yordan chetga chiqqan deb hisoblanadi. Masalan, *substandart* – past standartli va *subme'yoriy* – me'yordan past bo'lgan til birliklari.
- Subme'yor asosiy (standart) me'yorning quyi yoki pastki qismini bildiradi. Bu til birliklari ko'pincha rasmiy nutqda qo'llanilmaydi va asosan oddiy suhbatlar, shevalar va h.k.larda ishlatiladi.

Shunday qilib, *sub*- prefiksi yordamida *subme'yor* tushunchasi *me'yorga* qarama-qarshi termin sifatida ishlatiladi, ya'ni til birliklarining asosiy (standart) me'yordan chetga chiqadigan, pastroq, kamroq yoki quyi qismlarini ifodalaydi.

**Natijalar (Results).** Tahlillar natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Me'yor uch darajada namoyon bo'ladi: lisoniy, adabiy va nutqiy.
2. Lisoniy me'yor til tizimining ichki qonuniyatlariga asoslanadi.
3. Adabiy me'yor kodifikatsiyalangan va rasmiylashtirilgan shakl sifatida barqarorlikni ta'minlaydi.
4. Nutqiy me'yor uzus bilan bog'liq bo'lib, real qo'llanish jarayonida shakllanadi.
5. Subme'yor til tizimidan tashqaridagi hodisa emas, balki ijtimoiy guruhlar, sleng, jargon, dialekt, idiolekt va boshqa norasmiy qatlamlarda namoyon bo'ladigan funksional birlikdir.



6. Me'yor va subme'yor o'rtasidagi chegara qat'iy emas; ular tarixiy va ijtimoiy omillar ta'sirida o'zgaruvchan xarakterga ega.

7. Og'zaki nutqda subme'yor aralashuvi kuchayib borayotganligi kuzatildi ("gonna", "wanna", shevaga xos qisqartmalar va h.k.).

**Muhokama (Discussion).** Me'yorni faqat grammatik qoidalar majmui sifatida talqin qilish yetarli emas. U jamiyat tomonidan qabul qilingan, tarixiy shakllangan va kommunikativ maqsadga muvofiqlik asosida rivojlanib boruvchi hodisadir. Praga lingvistik maktabi vakillari tomonidan ilgari surilgan funksional yondashuv me'yorni kommunikativ vaziyat bilan bog'laydi. B. Gavranek me'yorning ijtimoiy va funksional jihatlarini alohida ta'kidlaydi. Subme'yor esa tilning buzilishi emas, balki uning tabiiy evolyutsion ko'rinishidir. U til tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ijtimoiy guruhlar ehtiyojidan kelib chiqadi.

**Xulosa (Conclusion).** Me'yor jamiyat tomonidan e'tirof etilgan til birliklari majmui bo'lsa, subme'yor ijtimoiy-guruhiy va kommunikativ omillar ta'sirida shakllanadigan faol qatlamdir. Ularning o'zaro kesishuv munosabatlarini o'rganish nutq madaniyatini rivojlantirish, til siyosatini takomillashtirish hamda zamonaviy til jarayonlarini ilmiy asosda baholash uchun muhimdir.

Xullas, *me'yor* va *subme'yor* lingvistik jihatdan o'ziga xos ta'rifga ega bo'lib, har birining muhim o'ziga xos xususiyatlari mavjud, ammo ular bir-biriga o'tuvchi va konseptual jihatdan birlashtirilgan murakkab hodisalardir.

*Lisoniy me'yor* – bu ma'lum bir tarixiy davrda jamiyat tomonidan umume'tirof etilgan til boyliklari, shuningdek, og'zaki va yozma nutqni qo'llash qoidalariga bo'ysunadigan hamda keng tarqalgan til vositalarini bir ramka ostida birlashtirib aniq me'yorlar asosida qo'llanadigan an'anaviy qoidalar majmuasidir.

*Lisoniy subme'yor* – me'yor yoki qonunlarga bo'ysunmaydigan, ma'lum qolipdan tashqaridagi, asosan ijtimoiy guruhlar doirasida kuzatiladigan, so'zlashuv uslubiga xos, doimiy yangilanib turadigan til elementlarini o'z ichiga oladi.

Lingvistik me'yorlarning mezonlariga e'tibor qaratish, ularning muammolari bilan shug'ullanish, zamonaviy nutqda me'yorning subme'yorga aylanish holatlarini kuzatish orqali tilning barcha tashqi va ichki, real va noreal, hayotiy yoki anomal hodisalarini tahlil etish mumkin. Bu esa shuni anglatadiki, nafaqat me'yor, balki subme'yor muammosiga ham yopiq masala sifatida qarash noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, lingvistik subme'yor atrofidagi bahslarni muqarrar deb hisoblaymiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Albercht J. M. "Substandart" und "Subnorm". Die nicht-exemplarischen Ausprägungen der "Historischen Sprache" aus varietätenlinguistischer Sicht. Konzepte der Sprach und Literaturwissenschaft // Holtus G., Radtke E. Sprachlicher Substandart III. Vol.45. Niemeyer Tübingen, 1986. – P. 44-127.
2. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. II қисм. – Тошкент: Фан, 1998. – 133 б.
3. Бегматов Э. Нутқ маданияти проблемасининг пайдо бўлиши ва асосланиши // «Нутқ маданиятига оид масалалар» тўплами. – Тошкент, 1973. – Б. 166-167.
4. Charles B. Traité de stylistique française. Genève, 1909. – 624 p.
5. Гамов А.Н. Сравнительный анализ общего и специального сленга в макросистеме английского просторечия // Вестник РУДН. Теория языка. Семиотика. Семантика. – Москва, 2016. – № 1. – С. 151-162.
6. Havranek B. Studie o spisovné jazyce. – Praha: Československé akademie ved, 1963. – 370 p.

7. Едличка А. О пражской теории литературного языка // Пражский лингвистический кружок. – Москва: Прогресс, 1967. – С. 544-556.
8. Ицкович В.А. Норма и её кодификация // Актуальные проблемы культуры речи. – Москва. Сб.статей. 1970, – С. 9-39.
9. Жиянова Н., Мўминова О., Максумова С. Нутқ маданияти. II Китоб. – Тошкент, 2016. – 158 б.
10. Leonard B. Language. New York: Holt, 1933. – 564 p.
11. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991. – 274 б.
12. Ожегов С. И. Очередные вопросы культуры речи. Лексикология. Лексикография. Культура речи. – Москва: Высшая школа, 1974. – 352 с.
13. Петрова Л. С. Лингвистическая норма: критерии дефиниции // Вестник МГЛУ. Гуманитарные науки. Вып. № 8 (850), 2021. – С. 108-116.
14. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 285 б.
15. Салькова М.А., Петрова Л.С. Лингвистика и лингводидактика сегодня: выходя за пределы языковой нормы // Вестник МГЛУ. Образование и педагогические науки. Вып. № 1. (838), 2021. – С.137-150.
16. Содиқов А., Абдуазизов А, Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981.
17. Тачмуродова Ж. К вопросу о норме и нормативности // Известия АН Туркменской ССР. Серия общественных наук. №1, 1988. – С. 75-90.